

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o'rni.....	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarining ahamiyati.....	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida).....	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati.....	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'rni.....	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji.....	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsional ta'siri.....	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari.....	30
Muzafar AVLIYAKULOVA. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor.....	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин.....	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati.....	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari.....	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi.....	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.....	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'rni.....	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari.....	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish.....	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона.....	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri.....	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida.....	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish.....	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari.....	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni.....	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari.....	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi.....	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish.....	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati.....	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi.....	103
Jo'rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqaning muammo va yechimlari.....	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения.....	108
Jo'rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi.....	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari.....	117
Jo'rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni.....	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash.....	122

Nargiza RAFIYEVA. O'zbek kitobot va miniatura san'ati	126
R.N.RAXIMOV, M.K.AKRAMOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining vokal-xor malakalarini tarkib toptirish	129
Baxrom MADRIMOV. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlar jarayonida axloqiy-estetik tarbiyalash	132
Sanoql DO'STOV. Musiqani tinglab uni idrok etishning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....	135
Davron RO'ZIYEV. Konsert namoyishiga tayyorgarlik faoliyati	139
Baxtiyor MUSTAFOYEV. Umumiy o'rta ta'lim tizimi islohotlarida musiqa madaniyati	143
To'xtasin RAJABOV. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati	146
Shoira NOROVA. Yosh avlodni musiqa san'ati orqali tarbiyalash yo'llari	149
Ilhom QO'SHAYEV. An'anaviy musiqiy merosni o'rganishni metodik takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni	152
Ibrohim KAYUMOV. San'atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati	154
Sadritdin GULOV. O'zbekiston maktablarida musiqa cholg'ulariga yo'naltirishning zamonaviy ilg'or innovatsiyalari.....	157
Halim HASANOV. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik (musiqa fani misolida)	159
Shavkatjon KAMOLOV, Husniddin HIKMATOV. Talabalarda mustaqil ta'limni tashkil etish.....	161
Сайфулла АБДУЛЛАЕВ. Краткосрочные рисунки как средство формирования художественного воображения студентов в процессе рисования по памяти и представлению	163
To'lqinjon Muxamedov. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish	167
O'g'iloy RAMAZONOVA, Ferangiz Odilova. O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari ..	169
Malohat RAXMATOVA, Gulbahor ISTAMOVA. "Shashmaqom" nasr (ashula bo'limining ikkinchi guruh sho' balarini) o'rgatish yo'llari.....	171
Olimxo'ja KARIMOV, Rahim XODJAYEV. Musiqa to'garaklarida o'quvchilarni skripka cholg'u sozi bilan tanishtirish.....	173
Ma'rifat UMUROVA. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin bola tarbiyasining muhim vositasi.....	176
Shohruh SHODIYEV. Qashqar rubobida xalq kuylarini notalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	181
Azamat Rajabov. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ..	186
Рустам АТАМУРАДОВ. Формирование умений и навыков по школьному репертуару учителей музыки в общеобразовательной школе	188
Sherzod SHAMSIYEV, Dilbar MO'SINOVA. Xor uchun yozilgan musiqa asarini tahlil qilish yo'llari.....	191
Сухроб АБДУЛЛАЕВ. Формы организации научно – исследовательской и творческой деятельности студентов направления образования "Изобразительное искусство и инженерная графика".....	193
Olimxo'ja KARIMOV, Gulmira QUTLIYEVA. O'quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish	195
Olimxo'ja KARIMOV, Sitorabonu SHARIPOVA. Qo'shiq va kuylar orqali komil inson shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslari.....	198
Qobil QORIYEV. O'zbek musiqa san'atining qadimiy ildizlari tarixidan	200
Abror AZIMOV. Zardushtiy va buddaviylar davri ommaviy musiqa va badiiy san'at tarixi va turlari	202
Said BOLTAZODA. Avesto davrining xorazm va sug'diyona musiqa maktablari madaniyatida ijrochilik uslublari.....	204
Davron RO'ZIYEV, Jamshid NIYOZOV. Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini shashmaqomning nasr bo'limi vositasida axloqiy estetik tarbiyalash.....	206
Sanoql DO'STOV, Zilola RUZIYEVA. O'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda milliy dutor cholg'usining o'rni va tarbiyaviy ahamiyati.....	208
Mehriniso Begmurodova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa terapiya mashqlarining ahamiyati ...	210
Zafarbek YAQUBOV. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi ma'naviyatini rivojlantirishda Xorazm xalq dostonlarining o'rni	212
Umidbek BOLTAYEV. Milliy musiqiy meros-o'quvchilar estetik tarbiya vositasi	214
Uchqun BOLIYEV. Ma'naviy axloqiy tarbiyaga kompleks yondashish	217
Maqsuda AXMEDOVA. Musiqiy tasavvurlarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalari	219
Adilshoda TO'YMURODOV. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'quvchining ijodkorligi	222
Hafiza HAMIDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor qo'shiqlari vositasida tarbiyalashda alla qo'shig'ining ahamiyati.....	225
Mirshod XODJIYEV. Buxorcha va mavrigi turkumi haqida.....	228
Firangiz SHUKUROVA. Buxoro folklor qo'shiqlarining maktab darsliklaridagi o'rni	230
Shaxnoza YAXYOYEVA. Buxoro shashmaqomining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	233

MARKAZIY OSIYODA MUSIQA ILMIGA ASOS SOLGAN OLIM VA MUTAFAKKIRLAR ISHLARINING TAHLILI

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ifodalangan. Bizning eramizda yashab ijod etgan ko'pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga musiqa ilmiga ham alohida e'tibor berganliklari mazkur maqolada keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: cholg'u ijrochiligi, o'zbek cholg'ulari, xalq cholg'ulari, milliy musiqa, asarlar, ijro bezaklari.

В данной статье представлен анализ творчества ученых и мыслителей, основавших музыкальную науку в Средней Азии. В данной статье подробно рассказывается о том, что многие ученые, жившие и работавшие в нашу эпоху, помимо творчества в различных областях науки, также уделяли особое внимание науке о музыке.

Ключевые слова: инструментальное исполнительство, узбекские инструменты, народные инструменты, национальная музыка, произведения, исполнительские декорации.

This article presents an analysis of the work of scientists and thinkers who founded the science of music in Central Asia. This article elaborates on the fact that many scientists who lived and worked in our era, in addition to creating in various fields of science, also paid special attention to the science of music.

Key words: instrumental performance, Uzbek instruments, folk instruments, national music, works, performance decorations.

Kirish. Musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotida, xususan, cholg'u ijrochiligida milliy musiqa cholg'ularining ham o'ziga xos o'rni bo'lib, cholg'u ijrochiligi musiqa asarlarining paydo bo'lishida, musiqa madaniyatining rivojlanishida, asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha yetib kelishida asosiy omil hisoblanadi.

Asosiy qism. Musiqa cholg'ulari, cholg'u ijrochiligi har bir davrda musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotida asosiy manba hisoblanib, xalq cholg'ulari har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi. Musiqa cholg'ulari ijrosida esa har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo'lib turadi. Chunki milliy musiqa cholg'ularida asosan ko'proq har bir xalqning milliy musiqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg'ulari deb ataladi.

Har bir millatning musiqa merosi, milliy musiqa cholg'ulari ijrolaridagi sadolanish bilan bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Masalan: arab, fors, turk, hind, o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman musiqasi va hokazo. Hosil qilingan musiqa sadolaridan biri "nag'ma" deb atalib, "nag'ma" ikki xil nomlangan. "Qavliy" - bu tabiiy inson tovushidagi sadolar va "fe'liy" esa sun'iy deb sanalib, ya'ni musiqa cholg'ularidan chiqadigan musiqiy sadolar tushuniladi [6, 12].

Musiqa cholg'ularining ko'plari qadimiy musiqa cholg'ulari hisoblansa, ba'zilar esa keyingi yillarda ixtiro qilingan musiqa cholg'ularidir. Albatta, dastlabki yaratilgan musiqa cholg'ulari oddiy, sodda ya'ni dastlabki musiqiy sadolar hosil qilinishining boshlanishi bo'lgan. Musiqa cholg'ularining yaratilish tarixi necha ming yilliklarga borib taqaladi. Bizning eramizda insho qilingan ba'zi bir musiqiy risolalardagi ma'lumotlardan birida go'yo dastlabki musiqa cholg'usi Fishog'urs (Pifagor) hakim tomonidan ixtiro qilingan deyiladi [6, 17].

Cholg'u ijrochiligi yildan-yilga boyib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg'u ijrochiligiga alohida e'tibor berilib, boshlang'ich, markaziy va oliy musiqa dargohlarida "Cholg'u ijrochiligi" bo'limlari faoliyat ko'rsatib, barcha milliy musiqa cholg'ularining ijrolari o'rganilmoqda. Musiqa cholg'ulari uzoq yillardan buyon turlicha nomlanib kelinmoqda. O'zbekistonda "Xalq cholg'u asboblari", arab tilida "Oloti musiqiy", fors tilida "Sozhoi milliy musiqiy", "Oloti musiqiy", "Asbobhoi xalqiy", rus tilida "Музыкальные инструменты". lotin tilida "Miyuzikal instruments" va hokazo. Xalq cholg'ulari to'g'risida ko'pgina musiqiy risolalar, ilmiy risola va maqolalar, darslik va o'quv qo'llanmalari insho etildi. O'zbekistonda hozirgi kunda "Xalq cholg'u asboblari" o'rniga "Xalq cholg'ulari" bilan bir qatorda, "Milliy musiqa cholg'ulari" atamaları qo'llanilmoqda.

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin bizning eramizdan avvalgi musiqiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat keyingi yillarda olimlarning qidiruvlari natijasida yer

ostidan va joylardan topilgan uy ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ularining va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Masalan: "Avesto" asari 3000 yillik tarixga ega bo'lgan nodir asar hisoblanadi. Albatta, o'sha davrlarda ham madaniyat, san'at, xususan, musiqa ijrochiligi ham bo'lgan. Tarixchi Mas'udiyning "Muruj az-zahab" (Oltin vodi) kitobida qayd etilishicha Aleksandir Makidonskiy Istahar shahrini bosib olib, olimlarga "Avesto"dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doir o'rinlarni tarjima qildirib, qolgan qismini yoqib yuborishni buyurgan. Mas'udiyning ma'lumotiga ko'ra "Avesto" matni 12 ming oltin taxtaga yozilgan [5, 6].

Muhokamalar va natijalar. Musiqa ilmi qachon paydo bo'lgan? degan savolga jo'ngina qilib, odamzod yaratilgan lahzada deb javob berish mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha Alloh Taolo Hazrati Odamni yaratib, uning vujudiga jonni kiritish jarayonida musiqa sadolari arzu samoni to'ldirib turgan ekan. Musiqa haqida gap ketganda "Jonbaxsh" sifatining qo'llanilishi ham shundan bo'lsa ajab emas" [6, 3]. Lekin musiqa ilmining qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Musiqa ilmi go'yo bir ilohiy kuch bo'lib, uning paydo bo'lishi haqida turli xil rivoyatlar mavjud. "Zuhro yulduzi xonanda-sozandalarning homiysi hisoblangan. Cho'lpon yulduzi yoki Venera sayyorasi" [2, 316].

Bizning eramizda yashab ijod etgan ko'pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga musiqa ilmiga ham alohida e'tibor berganlar. Masalan, Arestotel, Pifagor, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog'iy, Xorazmshoh, Jomiy, Navoiy, Kavkabi, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar. IX asrlardan boshlab "Musiqa" ilmiga va uning ijrochiligiga oid musiqiy asarlar paydo bo'la boshladi. Forobiyning "Kitobu-l-musiqiy al-kabir" (Musiqa oid katta kitob), X-XI asrlarda Abu Ali ibn Sinoning "Kitobu-sh-shifo", "Donishnoma" kitoblaridagi maxsus boblar, Abdulqodir Marog'iyning "Maqosid-ul-alhon" ("Kuylar maqsadlari"), Urmaviyning "Risolatush-sharafiya", Qutbuddin Sheroziyning "Durratut-toj" musiqiy risolalari, Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy" ("Musiqa ilmi risolasi"), Kavkabiyaning "Risolayi musiqiy" asari, ya'ni "Risola dar bayoni duvozdah maqom" ("O'n ikki maqom bayoniga bag'ishlangan risola"), Husayniyning "Qonuni-ilmi va amaliy musiqiy" ("Musiqa ilmining amaliy va nazariy qonunlari"), Darvesh Ali Changiyning "Tuhfatu-s-surur" ("Shodlik tuhfasi") asarlari shular jumlasidandir. Komil Xorazmiyning "Tanbur nota chizig'i" da esa maqomlar nota yozuvi berilgan. Yozilgan ilmiy asarlarda har bir mutafakkir olim o'zi yashab ijod etgan davridagi musiqiy hayotga doir musiqa ilmini amaliy va nazariy sohalariga tegishli musiqa cholg'ulari va ularning ixtirochilari, sozanda, xonanda, bastakor, musiqashunoslar to'g'risidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

X-XII asrlarda Markaziy Osiyoda musiqa san'ati, jumladan, cholg'u ijrochiligi ancha rivojlanib, o'sha davrlarda juda ko'p musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilgan. Bu borada musiqashunos Darvesh Ali Changiy o'zining musiqiy risolasida – chang, ud, nay, doira musiqa cholg'ulari ayniqsa 5 va 6 qo'sh torli "Ud" musiqa cholg'usi haqida ma'lumot berib, bu musiqa cholg'usining o'sha davrdagi mavqeini va musiqa ijrochiligidagi o'rini yuqori baholab, "Ud" barcha musiqa cholg'ularining podshohidir va "Rud" musiqa cholg'usi ham kamon vositasida ijro etilganligi haqida ma'lumot beradi.

Ma'lumki, IX-X asrlarda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasida "Rud" va "Chang" musiqa cholg'ularining mohir ijrochisi bo'lgan. O'sha davrda yashagan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari yaratilib, bu asarda bir qancha mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari, umuman juda ko'p turli xil qo'shiqlar o'z aksini topgan. X asrning buyuk allomasi musiqashunos olim Abu Nasr Forobiy (873-950) musiqa ilmiga katta e'tibor berib, musiqa cholg'ularining ijrolari, musiqa nazariyasi, "Sharq nota tizimi"ni yaratish va ularni o'sha davrdagi musiqa ijrochiligiga qo'llanish masalalari, matematika fanini mukammal o'rganish bilan birga, matematika fanining bir turi hisoblangan musiqa ilmini o'rganish va uni targ'ib etishga o'zining buyuk hissasini qo'shgan. Uning "Kitobu-l-musiqiy al-kabir" ("Musiqa ilmiga oid katta kitob") asarida turlicha musiqa usullari (zarblari), musiqa cholg'ularidan ud, tanbur, nay, chang va turlicha musiqiy ovozlari haqida ma'lumot berilgan [10, 176]. X asr ashula san'atiga doir ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham o'z aksini topgan.

Adabiyotlar

1. Андреева. А.М. Методика преподавания хорового дирижирования. М.: "Проевдения", 1989.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV. –Toshkent, 1985. -316 b.
3. Асафев Б.В. О хоровом искусстве. -М.: "Музыка", 1980.
4. Kushayev A. Estetik tarbiya asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1987.
5. Mahmudov Tilab. Avesto haqida. Toshkent. 2000.6.s.
6. Nafas Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent. 1995. 3. s.
7. Radjabov Is'hoq. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent- 1963. 12.s.
8. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. -T.: "O'qituvchi" 1987.
9. Soipova D. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. -T., 2005.
10. Xayrullayev M.M. Forobiy. Toshkent. 1963. 176 s